

QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTIDA ERISHILGAN ILMIY NATIJALAR

E.S.Shaptakov-q.x.f.d., professor, direktor,
A.X.Xatamov-q.x.f.d (PhD), katta ilmiy xodim, ilmiy ishlar
bo‘yicha direktor o‘rinbosari
Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti 95 yillik tarixga ega bo‘lib, 1930-yil 26-oktyabrida Yer islohoti Xalq komissariatining 254-sonli bo‘yruqi bilan Kattaqo‘rg‘on tajriba stansiyasi sifatida tashkil etilgan va 1935-yil 29 iyulda ilmiy-tadqiqot institutiga aylantirilgan.

Institut faoliyati quyidagi yo‘nalishlarga qaratilgan:

respublika qorako‘lchiligining jadal rivojlanishini ta‘minlashda qorako‘l qo‘ylari genofondini saqlash, seleksiyasi va naslchilik ishlarini ilmiy jihatdan takomillashtirish hamda urchitish;

cho‘l-yaylov qo‘ychiligida qo‘y zotlarini iqlimlashtirish, tizimlar, oilalar va zotlarni yaratish, ularni saqlash va oziqlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-texnik mahsulotlar ishlab chiqish;

cho‘l ozuqabop o‘simliklari introduksiyasi, seleksiyasi, urug‘chiligi, urug‘shunosligi, cho‘l yaylovlaridan ratsional foydalanish hamda cho‘l yaylovlari mahsuldorligini oshirish yuzasidan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish;

qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasining dolzarb muammolari yo‘nalishida davlat ilmiy-texnika dasturlarining rejalari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish asosida ilmiy-texnik mahsulotlar ishlab chiqish.

Institutda faoliyat ko‘rsatgan olimlarning samarali ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida qorako‘l qo‘ylarining yuqori mahsuldor zavod tiplari va cho‘l ozuqabop o‘simliklarining yuqori hosilli mahalliy navlari yaratilgan.

Shu jumladan institutda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida qorako‘l qo‘ylarining yuqori mahsuldor 33 ta zavod tiplari yaratilgan.

Qora rangli qorako‘l qo‘ylarining:

“Pomuq” (1975), “Qoraqum” (1976), “Muborak” (1976), “Nishon” (1976), “Konimex” (1976), “Ulus” (1980), “Qarnab” (1995), “Avazcho‘l” (2005), “Sarjal” (2006), “Jongeldi” (2018);

Ko‘k rangli qorako‘l qo‘ylarining “Nurota” (1970), “Janubiy O‘zbekiston” (1970), “G‘uzor” (1978) “Bobotog” (1980), “Tomdi” (1991);

Sur rangli qorako‘l qo‘ylarining “Qizilqum” (1962), “Qoraqum” (1962), “Navoiy” (1962), “Sverdlov” (1962), Bronza, platina va yantar rangbarangliklardagi “Surxondaryo” (1962), “Nurota” (1971), Olmos rangbaranglikdagi sur qorako‘l qo‘ylarining “Sanguzor” (1990), Surxondaryo sur qorako‘l qo‘ylarini antrasit rangbaranglikdagi zavod tipi (1991), Qoraqalpoq sur qo‘ylarining “Turtko‘l” (2002), “Nurota” (2021), Kumushsimon rangbaranglikdagi sur qorako‘l qo‘ylarining “O‘zbekiston” (2004), Yassi gul tipli sur rangli qorako‘l qo‘ylarining “Saribel” (2004), Yassi tipli sur qorako‘l qo‘ylarining “Buxoroisharif” (2007), Yirik jussali sur rangli qorako‘l qo‘ylarining “Shofirkon” (2017), Zarmalla rangli qorako‘l qo‘ylarining “Nurota” (2001);

Oq rangli qorako‘l qo‘ylarining “Gagarin” (1977), “Samarqand” (1977), Guligaz rangli qorako‘l qo‘ylarining Brilliant rangbaranglikdagi “Sayhon” (1977) zavod tiplari yaratilgan.

Bugungi kunda Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumanida O‘.X.Aripov., E.S.Shaptakov va boshqalar tomonidan “Qumsimon rangbaranglikdagi sur qorako‘l qo‘ylarining **“Surxondaryo”** zavod tipi” ni yaratish ishlari yakunlanib, tasdiqlash uchun Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligiga yoborilgan, aprobatatsiyadan o‘tkazish ishlari olib borilmoqda.

Institutda cho‘l ozuqabop o‘simliklarining seleksiyasi, urug‘chiligi, ozuqa ishlab chiqarish yo‘nalishida olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, issiqqa, qurg‘oqchilikka va sho‘rga chiqamli 17 ta ozuqabop o‘simlik navlari yaratilgan.

Izenning “Karnabchulskiy” (1983), “Pustinniy” (1983), Izenning “Saxro” (1991), “Otavniy” (1992), “Nurota” (2003);

Quyrovuqning “Pervenies Karnabi” (1983), “Senokosniy” (1992), “Salang” (2003);

Komforosmaning “Sogdiana” (1990);

Qora saksovlarning “Nortuya” (1991);

Qo‘ng‘irboshning “Rohat” (1991);

Cho‘g‘onning “Jayxun” (2001);

Tereskenning “To‘lqin” (2003);

Shuvoqning “Sonet” (2003);

Astragalning “Oqtog‘” (2007);

Makka supurgining “Malika” (2018);

Atripleksning “Yagona” (2018) navlari yaratildi.

Ushbu yaratilgan navlar cho‘l yaylovlarining hosildorligini oshirish, qorako‘l va boshqa cho‘l hayvonlarining ozuqa manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda makka supurgining **“Odil”** navini hamda cherkezning **“Baraka”** navini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar yakunlanib, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi qishloq xo‘jalik ekinlari navlarini sinash Markazida Davlat sinovidan o‘tkazilmoqda.

Ilmiy ishlanmalar Intellektual mulk agentligining ekspertiza jarayonlaridan muvafaqqiatli o‘tib, 2022-yilda 1 ta ixtiro uchun patent olishga erishildi: “Qorako‘l qo‘ylari uchun vitaminlar bilan boyitilgan ozuqa olish usuli” (Ixtiro uchun patent № IAP 06747 raqamli guvohnoma);

2023-yilda 1 ta ixtiro uchun patent olishga erishildi: “Qumli cho‘l sharoitida izenning toshloq ekologik tipini yetishtirish usuli” (Ixtiro uchun patent № IAP 07539 raqamli guvohnoma);

2024-yilda 1 ta ixtiro uchun va 3 ta foydali model uchun patent olishga erishildi:

-“Способ чеканки полукустарников (прутняка каменистого *Kochia prostrata* (L.) Schrad) в условиях предгорной пустыни и зоны Арала” (Ixtiro uchun patent № IAP 07539 raqamli guvohnoma);

“Способ определения этологических типов молодняка овец в суровых условиях Каракалпакстана” (foydali model uchun № FAP 02485 raqamli guvohnoma);

“Qorakol qochqorlarini bordoqiga boqish usuli” (foydali model uchun № FAP 02514 raqamli guvohnoma);

“Qorako‘l qo‘ylarini oziqlantirish uchun ozuqaviy bloklar” (foydali model uchun № FAP 02488 raqamli guvohnoma).

AL-5822012117 “Barcha ranglardagi qorako‘l terilariga ularning sifat va xususiyatlarini o‘rganish va tahlillash asosida texnik talablar ishlab chiqish va xalqaro standart tayyorlash” (umumiy qiymati 641,1 mln.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida turli urchitish hududlarida yetishtiriladigan barcha rang, rangbaranglik, gul tiplari, guruh va navlaridagi qorako‘l terilarining tovar ko‘rsatkichlari, sath o‘lchami, teri xususiyatlarini baholash, alohida qorako‘l terilar guruhlar uchun keltirilgan ko‘rsatkichlarning optimal parametrlarini aniqlash, qorako‘l terilarining gul tiplari va shakllari, jun-tola qoplamining sifatini o‘rganish asosida ularning optimal parametrlarini aniqlash, turli rangbarangliklardagi rangli qorako‘l terilarida muhim tovar ko‘rsatkichlarini, rangbarangliklarning ifodalanishi va jadalligi bo‘yicha optimal parametrlarni aniqlash ishlari olib borildi. Natijada halqaro standart ishlab chiqildi.

AL-632204145 raqamli “Orol dengizi qurigan tubi sharoitida cho‘l ozuqabop o‘simlik navlarini sinash va istiqbolli tur va navlar birlamchi urug‘chiligini tashkil qilish” (umumiy qiymati 500,0 mln.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida galofit o‘simliklarni sinash, o‘simliklarning o‘sinh va rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish asosida Orol dengizi qurigan tubini o‘zlashtirish borasida amalga oshirilayotgan loyiha tadqiqotlari natijasida qora saksovulning “Nortuya” navi, cherkezning “Baraka” navi, cho‘g‘onning “Jayxun” navi va olabutaning “Odil” navlari o‘simlik qoplamini hosil qilishi mumkinligi aniqlandi.

AL-7723041292 raqamli “Yaylov ozuqabop o‘simliklari urug‘larini yetishtirishning agrotexnologiyasini ishlab chiqish” (umumiy qiymati 1,149 mlrd.) mavzusidagi amaliy loyihasi bo‘yicha 2024-yil yanvar oyidan boshlab, yaylov ozuqabop o‘simliklari urug‘larining laboratoriya sharoitidagi unuvchanli aniqlanib, urug‘lar tajriba dalasi ekin maydonlariga 45 x 45; 60 x 60; 75 x 75; 90 x 90; 105 x 105; 120 x 120 sm oraliqlarida kvadrat uyalab fevral oyi 15 sanasida ekildi. Aprel -may oylarida yaylov ozuqabop o‘simliklari urug‘larining unib chiqish jarayoni hamda tup soni qalinligi aniqlandi. Iyun oyida maysalarning o‘shishi va rivojlanishini qayd etish, tajriba paykalchalaridagi barcha variantlarda fenologik kuzatuvlar olib borildi.

BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining O‘zbekistondagi vakalotxonasi bilan institutining kelishuviga asosan “Iqlimga oid aqlli yechimlar orqali yaylovlarni boshqarish amaliyoti va yem xashak ishlab chiqarishni takomillashtirish” mavzusidagi 10 oyga mo‘ljallangan, umumiy qiymati 199,0 mln. so‘m bo‘lgan amaliy loyiha doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, natijalar yuzasidan Nurobod tumani Saxoba ota MFYning 27 nafar aholisiga “Yaylovlarni yaxshilash va ko‘p komponentli agrofitosenozlar yaratish” dala seminari bo‘yicha 20 akademik soatlik kurs maxsus dastur asosida o‘tkazildi.

M U N D A R I J A

1	Shaptakov E.S., Xatamov A.X. Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutida erishilgan ilmiy natijalar	3
2	Шаптаков Э.С., Хатамов А.Х., Ахмадалиева Л.Х., Кличев З.С. Изобретательская деятельность в НИИ каракулеводства и экологии пустынь, посвященная 95 летнему юбилею института	6
I. CHO‘L CHORVACHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING SELEKSION VA GENETIK MUAMMOLARI VA YECHIMLARI		
3	Shaptakov E.S., Yarmanov M.S. Sur rangli avlodlarning pigmentlanish darajasini gul tiplariga bog‘liqligi	10
4	Xatamov A.X., Gaziyeu A. Ekstremal cho‘l sharoitlarida urchitiluvchi qorako‘l qo‘ylarini urchitishda gul rasmining aniqligi bo‘yicha seleksiyalash samaradorligi	12
5	Газиев А., Хатамов А.Х., Маматов Б.С., Фазилов У.Т. Турли экологик шароитда қоракўл қўйлари селекция белгиларининг ўзгарувчанлиги	15
6	Арипов У., Имомов Х., Турсунов Ж. Жизнеспособность каракульских овец, мониторинг биопродуктивных признаков и улучшение качества каракуля	21
7	Уримбетов А.А., Газиев А. Особенности проявления селекционных признаков у ягнят сур каракалпакского породного типа	27
8	Уримбетов А.А., Газиев А. Совершенствование методов селекции каракульских овец каракалпакского сура разных этологических типов	30
9	Фазилов У.Т., Газиев А., Туранов М. Музей коллекции оригинальных каракульских шкурок уникального научного объекта	34
10	Imomov X.N., Aripov U.X. Turli genotipli avlodlar gullarining rasmi va mustahkamligi	39
11	Seytmusayeva Z.A., Gaziyeu A. Qoraqalpoq sur qo‘ylarini differensiyalangan juftlashdan olingan avlodlarning jun-tola sifati	43
12	Shaptakova L.E., Gaziyeu A. Turli gul tipi va sinfdagi qorako‘l qo‘zilarining jun-tola qoplami pigmentatsiyasi va gul mustahkamligi	46
13	Norboyeva G.S., Gaziyeu A. Gullarning joylashish rasmiga bog‘liq holda qora qorako‘l qo‘zilarining o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari	49
14	Mamatov B.S. Rangbarangliklar bo‘yicha juftlashdan olingan avlodlarda gul o‘lchami ko‘rsatkichlari	52
15	Turanov M.H. Buxoro suriga mansub olmos va kumushsimon rangbaranglikdagi qo‘ylardan olingan avlodlarda belgilarning o‘zgaruvchanligi	55